



UDK: 17(596)179

Dilshod RO'ZIBOYEV,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: drakon929292@bk.ru

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, PhD B.Axmedov taqrizi asosida

QASHQADARYO VOHASINING CHORVACHILIK XO'JALIKLARIDA MALAKALI KADRLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Аннотация

Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasidagi chorvachilik xo'jaliklarining rivojlanishi va ularni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash masalalari yoritilgan. Vohadagi chorvachilikning qishloq xo'jaligi tarmog'idagi o'rni, uning mintaqa iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli hamda mazkur soha uchun zarur bo'lgan kadrlar yetishmovchiligi tahlil qilingan. Shuningdek, Qashqadaryo vohasining chorvachilik sohasidagi kadrlar masalasini tizimli tahlil qilish va mavjud muammolarga samarali yechimlar taklif qilish orqali mintaqada chorvachilik xo'jaliklarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Milliy-hududiy chegaralanish, qishloq xo'jaligi texnikumlari, zootexnika, veterinariya, malakali kadrlar tayyorlash, davlat mablag'lari, naslchilik ishlari, davlat veterinariya xizmati, kolxoz tovar fermalari.

THE ISSUES OF DEVELOPING SKILLED PERSONNEL IN LIVESTOCK FARMS OF THE KASHKADARYA OASIS

Annotation

This article highlights the development of livestock farming enterprises in the Kashkadarya oasis and the issues of providing them with qualified specialists. It analyzes the role of livestock farming in the agricultural sector, its contribution to regional economic development, and the shortage of necessary personnel in this field. Additionally, the study emphasizes a systematic analysis of the personnel issues in the livestock sector of the Kashkadarya oasis and proposes effective solutions to existing problems, aiming to ensure the sustainable development of livestock enterprises in the region.

Key words: National-territorial delimitation, agricultural technical schools, animal husbandry, veterinary science, training of qualified personnel, state funds, breeding work, state veterinary service, collective farm commodity farms.

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ НА СКОТОВОДЧЕСКИХ ФЕРМАХ КАШКАДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА

Аннотация

В данной статье освещены вопросы развития животноводческих хозяйств Кашкадарьинского оазиса и обеспечения их квалифицированными специалистами. Проанализированы роль животноводства в сельскохозяйственном секторе, его значение в развитии экономики региона, а также нехватка кадров, необходимых для данной отрасли. Кроме того, акцент сделан на системном анализе кадровых вопросов в сфере животноводства Кашкадарьинского оазиса и предложении эффективных решений существующих проблем с целью обеспечения устойчивого развития животноводческих хозяйств региона.

Ключевые слова: Национально-территориальное размежевание, сельскохозяйственные техникумы, зootехника, ветеринария, подготовка квалифицированных кадров, государственные средства, племенная работа, государственная ветеринарная служба, товарные фермы колхозов.

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida oziq-ovqat hamda sanoatda xomashyoga bo'lgan talab o'sib bormoqda. Chorvachilik bir tomondan aholini go'sht va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlash, boshqa tomondan sanoatni muhim xomashyo bilan ta'minlaydi. Shuningdek, aholining ushbu tarmoqda ish bilan ta'minlanishi milliy daromadning oshishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, chorvachilik tarmog'i aksar mamlakatlar iqtisodining tayanchi hisoblanib, mamlakat eksportining katta ulushini qamrab oladi. Hozirgi kunda chorvachilik sohasiga e'tiborning kuchayishi aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashga hamda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy sharoit yaratmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuga oid adabiyotlarni uch guruhga ajratish mumkin: 1) Sovet davrida chop etilgan adabiyotlar; 2) Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar; 3) Xorijiy nashrlar. Birinchi guruhdagi adabiyotlarga sovet hokimiyati yillaridagi tadqiqotlar kirib, mavzuga oid bir qator maqola, risola va adabiyotlar nashr etilgan. Shuni aytish joizki, sovet davrinin dastlabki yillarida chorvachilikka doir ishlar asosan statistik ma'lumotdan iborat bo'lib, mazkur ishlar chorvalar sonidagi tadrijiy o'zgarishlarni tadqiq etishga ruxsat beradi [1]. 1930 yillardan boshlab chorvachilikka doir tadqiqotlar kesimida o'zgarishlar yuz berib, statistik ma'lumotlardan iborat bo'lgan adabiyotlar bilan birgalikda chorvachilikning ma'lum yo'nalishlarini tahlil qilgan ilmiy ishlar yuzaga keldi [2]. 1950-yillarda O'zbekistondagi chorvachilikning tarixi va holati

muhokamasiga bag'ishlangan konferensiyalar o'tkazildi hamda ularning xulosalari to'plam tarzida chop etildi [3]. Bundan tashqari, mazkur yillarda chorvachilikda ozuqa masalasi va chorvalar soni to'g'risida alohida ilmiy ishlar yuzaga keldi [4]. Sovet davrinin keyingi yillarida O'zbekistonda chorvachilikning rivojlanish tarixiga bag'ishlangan ilmiy asarlar nashr etildi [5]. Ayniqsa, K. Shoniyozov va B. Karmisheva tadqiqotlari mintaqadagi chorvachilikning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillari va undan keyingi davrlarda Qashqadaryo vohasida chorva mollarini sonini ko'paytirish, seleksiya-naslchilik ishlarini takomillashtirish, chorvachilikda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdorini ko'paytirish, uning sifatini eksportbop va jahon bozori talablariga moslashtirish kabi muammolar to'planib bordi. Shuningdek, xo'jaliklarda iqtisodiy islohotlarni qo'llash, sohada ilm-fan yutuqlarini keng tadbiiq etish, cho'ponlarning ijtimoiy sharoitini yaxshilash kabi bir qator muammolar o'z yechimini kutayotgan edi.

Tahlil va natijalar. 1924-1925 yillarda O'rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgan davrda O'zbekiston SSRda 5 ta qishloq xo'jalik texnikumi ochilib [7], xo'jalik va sovxoz ishlab chiqarishini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan mustahkamlashning muhim masalalaridan biri sotsialistik qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun malakali kadrlar tayyorlash vazifalaridan biri etib belgilandi. Jumladan, 1930-yilda

Qashqadaryo okrugining Koson rayoni qishloq va sovxoz artelida zootexniklar mavjud bo'lmagan bo'lsa, Beshkentda qishloq va sovxoz artellarida zootexniklar soni 8 nafarni, Chiroqchida 5 nafarni, Kitobda 6 nafarni, Shahrisabzda 3 nafarni, Yakkabog'da 2 nafarni, G'uzorda 8 nafarni, Tengi-xaram (hozirgi Dehqonobod tumani) da 3 nafarni zootexniklar tashkil etdi. Davlat veterinariya xizmati keng rivojlana boshladi. 1939-yilga kelib respublikada 150 ta veterinar-dorixonasi, 270 ta veterinariya-feldsherlik punkti, 10 ta go'sht mahsulotlarini tekshiradigan stansiya, 10 ta shahar sanitariya punkti, 10 ta ko'chma sanitar-veterinar punkti, 6 ta katta yo'l ustidagi veterinar-sanitar punkti va 15 ta veterinar-bakteriolog laboratoriyasi chorvachilikka veterinariya xizmatini ko'rsatdi. Chorvachilikka veterinariya va zootexnika xizmati ko'rsatish uchun davlat katta mablag'lar sarf qildi. Yillik hisobotlarda ko'rsatilishicha O'zbekiston kolxozlarida 1939-yil 1-yanvariga 3800 kishi kolxoz tovar fermalarida mudir bo'lib, 2 097 nafar kishi chorva brigadiri bo'lib, 11 050 nafar kishi cho'pon bo'lib, 1 878 nafar kishi sut sog'uvchi bo'lib, 1 377 nafar kishi cho'chqaboqar bo'lib va 23 533 nafar kishi otboqar bo'lib ishladi. Kolxozchilardan kadrlar tayyorlash kurslari orqali 1939-yilda chorvachilik sohasida ishlash uchun 5 477 nafar kishi, veterinariya sohasida ishlash uchun 2 610 nafar kishi, yilqichilik sohasida ishlash uchun 2 348 nafar kishi tayyorlandi. Shu jumladan, 1 540 nafar chorvachilik fermasi mudirlari, 461 yilqichilik fermasiga mudirlar, 700 nafar bonitirovkachi, 660 nafar chorvani sun'iy qochiruvchilar, 680 nafar cho'pon, 185 nafar veterinariya feldsheri, 2 400 nafar kolxoz veterinarlari va boshqa ixtisoslikdagi xodimlar tayyorlandi. O'zbekiston SSR kolxozlarida chorvachilik yuzasidan kadrlar tayyorlash uchun 1939-yilda hammasi bo'lib 2 273 100 so'm sarflandi. Qarshi rayonidagi "Oktabr 14 yilligi" kolxozining chorvachilik tovar fermasining mudiri, ordenli Xudoyberdi Jalilov qaramog'idagi qo'ylardan 32 foiz egizak qo'zi, Qamashi rayonidagi "Namuna" kolxozining cho'poni Mirzabobo Rahimov 22 foiz egizak qo'zi olishga erishdi [8]. Eng yaxshi qorako'lchilik sovxozlari hisoblangan – "Nishon" va "Qorako'l" 1939-1940 yillarda Butunittifoq qishloq xo'jalik vstavkasi qatnashchisi bo'ldi. 315 nafar ilg'or chorvador, 47 ta chorvachilik kolxozi va 110 ta kolxoz-tovar fermasi o'zlarining muvaffaqiyatlarini vstavkada namoyish qildi [9]. Qashqadaryo viloyati Qarshi rayonidagi "Kommunizm" kolxozida tomonidan 1941-yilda sutsoq'ar ayollar soni 1 nafarni, buzoqboqar va molboqar ayollar soni 1 nafarni tashkil etdi [10]. O'zbekiston SSRda o'rta va oliy ma'lumotli zootexniklar va veterinariya xodimlari 1941-yilda 1 500 nafar kishini tashkil etdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Qashqadaryo vohasida qishloq xo'jaligi sektorida boshqaruv kadrlarini tayyorlash jarayoni tizimli tarzda yo'lga qo'yildi. Urush sharoitida mehnat resurslarining kamayishi va iqtisodiy infratuzilmaning zaiflashishi fonida voha hududida 445 nafar qishloq xo'jaligi artel rahbarlari, 306 nafar hosildorlik kengashi raislari, 1 499 nafar dala va pillachilik brigada yetakchilari hamda 404 nafar chorvachilik fermalari boshqaruvchilari safi shakllantirildi. Kadrlar tarkibining asosiy qismini gender tengligi siyosati doirasida ayollar tashkil etgan bo'lib, 383 nafar ayol kolxoz raisi o'rinbosari, 204 nafari xo'jalik mudiri, 422 nafari brigada rahbari va 1 123 nafari bo'lim boshlig'i lavozimlarida faoliyat yuritdi. Rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonida qisqa muddatli malaka oshirish kurslari, maxsus o'quv muassasalari hamda amaliyotga yo'naltirilgan treninglar asosiy o'rinni egalladi. Biroq urush yillarida agrar sektor uchun malakali inson kapitalini shakllantirish bo'yicha tizimli strategiya yetishmasligi kadrlar tanqisligini keltirib chiqardi. Bu holat, ayniqsa, urushdan keyingi rekonstruksiya davrida, kolxozlar yirik, ko'p tarmoqli agroklastarlarga transformatsiya qilingach va ishlab chiqarish jarayonlari

zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangach yanada keskinlashdi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi, jumladan, Qashqadaryo okrugi hududida partiya, sovet va xo'jalik tuzilmalari oldida agrar sohani institutsional rivojlantirish, inson resurslarini qayta tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish vazifalari kun tartibiga qo'yildi. Mazkur jarayon SSSR Xalq Komissarlari Sovetining "O'zbekistonni yanada rivojlantirish rejasi va chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida amalga oshirildi. Ushbu hujjatda qishloq xo'jaligi tarmog'ini diversifikatsiya qilish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish, agrar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va ilmiy-innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo'yicha strategik vazifalar belgilab berilgan edi [11]. 1943-yilda Qarshi rayonidagi "Vostok" kolxozida tashkil qilingan ikki oylik kurslarida 150 nafar kolxozchi o'qidi. Koson rayonining "Chorvanaschilik" markazida 100 nafar vetsanitarlar tayyorlandi. O'zbekiston SSR hukumati 1943-1945 yillarda chorvachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Qashqadaryo vohasi kolxozlarini aksariyati chorvachilikka ixtisoslashtirilgani tufayli bu masala okrug rahbar organlari tomonidan doim nazorat qilindi. Koson, Kasbi, Chiroqchi, G'uzor rayonlarida yirik kolxozlar barpo etilib, ularda qo'ylar soni 70-100 ming boshgacha ko'paytirildi. Chorvachilikni rivojlantirishda ilg'or cho'ponlardan T.Ermatov, T.Berdiqulov, X.Nishonov, J.Asadov va boshqalarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin [12]. 1949-yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligi ministrligi qaramog'ida 12 ta qishloq xo'jalik texnikumi, 14 ta mexanizatsiya maktabi, 11 ta bir yillik qishloq xo'jalik maktabi, 14 ta rayon kolxoz maktablari bo'lib, bularda kolxoz hisobchilari va chorvachilik kadrlari tayyorlandi. Urushdan keyingi yillarda Qashqadaryo vohasida ilm-fan yutuqlari hamda ilg'or agrotexnik tajribalarni bevosita ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish borasida muhim tashabbuslar amalga oshirildi. 1951-yilga kelib davlat mablag'lari hisobidan 38 ta bolalar bog'chasi, 2 480 nafar o'rinni kolxoz bog'lari, 13 ta ayollar va bolalar maslahat markazlari, 11 ta sut oshxonalar tashkil etildi. Dala brigadalari va otryadlarida vaqtincha yashash uchun oromgohlar qurildi va moddiy-texnik bazasi yaxshilandi. 1952-yil holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyati kolxozlarida 206 nafar agronom, 163 nafar chorvachilik sohasi mutaxassisi, 165 nafar veterinariya xodimi, 183 nafar gidrotexnik hamda 122 nafar mexanik faoliyat olib borgan. Kadrlar siyosatida gender tengligini ta'minlash borasida ham ijobiy siljishlar kuzatildi. Mahalliy millat vakili bo'lgan xotin-qizlar rahbarlik lavozimlariga faol jalb qilina boshladi. Xususan, 1952-yilda 3 nafar ayol kolxoz raisi, 17 nafar rais o'rinbosari, 54 nafar brigadir lavozimlarida faoliyat yuritgan. Shuningdek, 120 nafar ayol komsomol tashkilotlarida, 19 ta boshlang'ich partiya tashkilotining kotibligida va millatlar bo'yicha birinchi kotib lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. 1953-yilga kelib esa viloyat kolxozlarida 96 nafar ayol brigadir, 1 100 nafar ayol bo'linma rahbari sifatida, 317 nafar ayol esa boshqaruv kengashlari a'zosi sifatida ish olib borgan. Shunga qaramay, viloyat agrar sektori uchun yuqori malakali agrotexnik, veterinariya va boshqaruv kadrlariga ehtiyoj yuqori darajada saqlanib qolgan edi [13].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, 1924-1953 yillar oralig'ida O'zbekiston, xususan, Qashqadaryo vohasida qishloq xo'jaligi rivojlanishida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Bu davrda texnikumlar, o'quv kurslari va maxsus maktablar orqali malakali mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. Natijada chorvachilik va qishloq xo'jaligi bo'yicha turli yo'nalishlarda minglab kadrlar tayyorlandi. Shunga qaramay, qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar va davlat tomonidan ko'rsatilgan yordamlar O'zbekiston SSRda sohaning mustahkamlanishiga va rivojlanishiga zamin yaratdi.

ADABIYOTLAR

1. Среднеазиатский экономический район. Очерк по экономике Средней Азии. – Ташкент, 1922; Статистический ежегодник 1917-1923 гг. Том 1. – Ташкент, 1924; Статистический ежегодник 1917-1923 гг. Том 2. – Ташкент, 1924.
2. Громяницкий. Овцеводческие совхозы. // Народное хозяйство Средней Азии. - № 11-12. - 1930. - С. 60-68; Два года социалистического строительства в Узбекистане. – Ташкент, 1931. - 172 с.; Узбекистан за 15 лет. – Ташкент, 1939.
3. Кормовая база и перспективы развития животноводства в Узбекистане. / Материалы науч.-производ. Конференции. – Ташкент: Изд-во Акад. Наук УзССР, 1951. - 64 с.; Кормовая база и перспективы развития животноводства в Узбекистане. / Материалы науч.-производ. Конференции. – Ташкент: Изд-во Акад. Наук УзССР, 1953. - 276 с.

4. Морозова О.И. Пастбище и их использование // Советский Таджикистан. - Сталинабад, 1950; Ризаев Г. Сельское хозяйство Узбекистана за 40 лет. – Ташкент, 1957.
5. Петков П., Горячкин А. Развитие животноводства в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1968. – 46 с.; Щекин.В.А. Чорвачилик. Махсус қисм (2 нашри). - Т.: Ўқитувчи, 1968; Юлдашев А. Аграрные отношения в Туркестане. - Ташкент, 1969.
6. Кармышева Б. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана. // Советская этнография. 1-969. - №1;
7. Чеботарева А. Из истории взаимоотношений СССР со странами сопредельного среднего востока в 1918-1924 гг. через Среднюю Азию. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1963. - 306 с.
8. Советский Узбекистан за 40 лет. – Ташкент, 1964. - 345 с.; Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. Статистический ежегодник. – Ташкент, 1967.
9. Агзамов К., Скляр И. Племенное, молочное скотоводство в совхозе “Чиназ”. - Ташкент: Узбекистан, 1965. 51 с.
10. Алексеева Н. Химия в животноводстве. –Ташкент: Узбекистан, 1965. – 50 с.
11. Безверхов А. Развитие животноводства на промышленной основе. - Ташкент: Узбекистан, 1972. - 63 с.; Ишкuvatov Б. Животноводство на промышленной основе. – Ташкент: Узбекистан, 1977. – 31 с.
12. Dienes L. Pastoralism in Turkestan: its decline and its persistence // Soviet Studies.vol. XXVII, no.3. – July, 1975. – P.343-365; Jacquesson S. Reforming pastoral land in Kyrgyzstan: from clan and custom to self-government and tradition // Central Asian Survey. – 2010. – Vol.29, No.1. – P. 103-118.
13. Holzwarth W. Relations between Uzbek Central Asia, The Great Steppe and Iran // In Shifts and drafts in nomad-sedentary relations. – Wiesbaden, 2005. – P. 179-217.